



## NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA GAP KOMPLEMENTATSIYASI

**Avezov Do'stmurod Normurodovich**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillaridagi fe'l qolipli so'z birikmalarining o'xshash va ular o'rtasidagi farqlar misollar hamda ularning tahlili orqali o'rganildi. Shuningdek, bu birikmalarining har ikki tilda tutgan o'rni tahliliy jihatdan qiyoslangan. O'zbek va nemis tilidagi hokim va tobe munosabatlar, ularning kelishiklar orqali ifodalanishi misollar orqali yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *So'z birikmalari, fe'l qolipli birikmalar, tobe so'z, hokim so'z, aniq artikl, vositali to'ldiruvchi.*

## SATZKOMPLEMENTIERUNG IM DEUTSCHEN UND USBEKEN

**Avezov Do'stmurod Normurodovich**

**Abstract:** *This article explores the similarities and differences between verb phrases in German and Uzbek through examples and their analysis. The role of these compounds in both languages is also analyzed analytically. The Uzbek-German relationship between the ruler and the subordinate is illustrated by examples.*

**Keywords:** *Phrases, verb phrases, subordinate clauses, dominant clauses, definite article, instrumental complement.*

*Kirish.* Nemis va o'zbek tillarining ikkalasida ham hokim so'z fe'l bo'lgan birikmalarda ravish (ba'zan sifatlar), vositali ot yoki harakat nomlari tobe bo'lib keladi. Ravish bilan fe'ldan iborat birikmalar ikkala tilda ham deyarli farq qilmaydi. Faqat o'zbek tilida tobe so'z (ravish yoki sifat) hokim so'zdan albatta oldin keladi, nemis tilida esa u hokim so'zdan oldin ham, keyin ham qo'llanishi mumkin. Masalan: *yaxshi o'qiysan – gut liest yoki liest gut* kabi.

*Asosiy qism.* Vositali kelishiklardagi ot bilan fe'ldan tuzilgan so'z birikmalari har ikki tilda o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega. Nemis tilida otlar fe'llarga predlogsiz yoki predlogli vositali kelishik formasida birikadi. Nemis tilida ham, o'zbek tilida ham hokim so'z fe'l bo'lgan birikmalarda ravish (ba'zan sifatlar), vositali kelishikdagi ot yoki harakat nomi va sifat-doshlar tobe bo'lib keladi. Bunday birikma komponentlari gapda to'ldiruvchi va ravish funksiyasini bajarib, bir-biri bilan so'z tartiba yoki intonatsiya vositasida birikadi. Nemis tilidagi fe'lli so'z birikmalarida tobe so'zlar hokim so'zdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin, o'zbek tilida esa ular hokim so'zdan albatta oldin keladi. Nemis tilida fe'l hokim so'z bo'lgan birikmalarda otlar fe'llarga predlogsiz yoki predlogli vositali kelishik formasida biriksa, o'zbek tilida esa vositali kelishiklarda yoki ko'makchi vositasida birikadi.





Nemis va o'zbek tillarida vositali kelishikdagi ot bilan fe'ldan tuzilgan birikmalarning grammatik xususiyatlari quyidagicha:

O'zbek tilida tushum kelishigidagi otlar asosan o'timli fe'lga ergashadi: *kitob o'qi*, *planni bajardik kabi*.

O'zbek tilida tushum kelishigidagi ot belgisi (qo'shimchali) va belgisiz (qo'shimchasiz) bo'lishi mumkin: *kitobni o'qi*, (*kitob o'qi*) (belgisiz) *Ahmadni uchratdingmi?* (belgisi tushum kelishik); *kitob o'qidik*, *kino ko'rdik* (belgisiz tushum kelishik) kabi. Nemis tilida tushum kelishikdagi otning qo'llanilishi ancha murakkab.

Otning birlik tushum kelishik formasining yasalishi uning rodiga va qaysi turlanishda ekanligiga bog'liq. Mujskoy roddagi otlarning bosh kelishikdagi der artikli tushum kelishigida den formasiga aylanadi. Bu yerda asosan otning o'zi o'zgarmay, faqat artikli o'zgarib, u kelishik farqini ifoda etadi: der Tag (Nominativ – bosh kelishik), den Tag (Akkusativ – tushum kelishigi). Sredniy rod otlarining birlik tushum kelishik formasi bosh kelishik bilan bir xilda bo'lsa, tushum kelishik birlikda ham shunday formada qoladi: das Buch (Nominativ – bosh kelishik), das Buch (Akkusativ – tushum kelishik) kabi.

Jenskiy rod otlarining bosh va tushum kelishiklari ham xuddi sredniy rod otlari kabi bir xil formada bo'ladi. Bosh kelishikdagi die Frau tushum kelishigida ham die Frau formasida qolaveradi.

Yuqorida kuchli (mujskoy, jenskiy, sredniy rodda) turlanadigan otlar haqida gapirib o'tildi. Kuchsiz turlanadigan mujskoy roddagi otlarning hammasi tushum kelishigida – (e)n qo'shimchasini qabul qiladi. Masalan: *den Studenten*, *den Knaben*, *den Bären*.

Ma'lumki, nemis tilida *der*, *die*, *das* aniq artikllaridan tashqari (otlar uchun) noaniq artikllar ham bor, chunonchi *der* o'rniga *ein*, *die* o'rniga *eine*, *das* o'rniga *ein* artikllari ishlatiladi. Otlar birlik tushum kelishigida noaniq artikl bilan quyidagicha qo'llanadi: *den* o'rniga *einen*, *die* o'rniga *eine*, *das* o'rniga *ein*.

Masalan: *einen Roman lesen*, *eine Karte kaufen*, *ein Kleid nehmen*. Nemis tilida tushum kelishigidagi ot ko'pincha aniq yoki noaniq artikl bilan, ba'zan esa artiklsiz ham qo'llanadi:

*Tee trinken. Ich trinke Tee.*

Tushum kelishigining ko'pligidagi suffiks va umlautlar nemis tili otlarining ko'plik formasini yasashdagi mavjud bo'lgan to'rt muhim qoidaga muvofiq qabul qilinadi. Aniq artikl faqat otlarning ko'plik formasida, noaniq artikl esa otlarning faqat birlik formasida ishlatiladi. Masalan:

*Ein Buch - Bücher lesen, Eine Karte - Karten kaufen.*





Tushum kelishik formasi to'ldiruvchi vazifasida kelib, harakatning tushum kelishigidagi so'z bildirgan obyektga yo'nalganligini ko'rsatadi. Vositasiz to'ldiruvchi talab qiladigan fe'llar nemis tilida o'timli (tranzitiv) fe'llar deyiladi. Nemis tilida fe'llar tushum kelishigidagi to'ldiruvchini talab qilish yoki talab qilmasligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

*o'timli (tranzitiv) fe'llar*

*o'timsiz (intransitiv) fe'llar*

O'timli fe'llar tushum kelishigidagi to'ldiruvchini talab qiladi. O'timsiz fe'llar o'zidan keyin tushum kelishigidagi to'ldiruvchini talab qilmaydi. Masalan: *schreiben, lesen* fe'llari o'timli bo'lsa, *sitzen, stehen* fe'llari o'timsiz hisoblanadi. Vositasiz to'ldiruvchi (*Akkusativobjekt*) quyidagi ma'noni ifoda etadi:

Ish-harakatdan anglashilgan natijani: *einen Roman schreiben*.

Atash ma'nosini anglatadigan fe'llardan keyin ham vositasiz to'ldiruvchi qo'llanadi: *Er nannte mich seinen Freund. Er hieß ihn einen Narren*. Tushum kelishigining bu turi faqat nemis tili uchun xosdir:

Predlogli tushum kelishikdagi (*Akkusativ*) so'zlar bilan tuzilgan so'z birikmalari quyidagicha:

a) *an, auf, hinter, in, neben, über, unter, vor, zwischen* predloglari bilan kelgan tushum kelishikdagi (*Akkusativ*) ot o'rinni ifodalab, *wohin? (qayerga?)* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan:

*an die Decke hängen – shipga ilmoq*

*auf den Tisch liegen – stolga ustiga qo'yimoq*

*hinter den Schrank stellen – shkaf orqasiga qo'yimoq in die Stadt fahren – shaharga bormoq.*

Tushum kelishik (*Akkusativ*) dagi ot *durch, zwischen* predloglari bilan kelganda, o'zbek tilidagi ot orqali, orqasidan kabi ko'makchilar bilan beriladi. Masalan: *durch den Wald gehen – o'rmon orqali bormoq*. 3. O'zbek tilida qaratqich kelishigidagi ot odatda fe'lga ergashib kelmaydi, faqat harakat nominigina aniqlab kelishi mumkin.

Nemis tilida qaratqich kelishigidagi ot o'timsiz fe'lga ergashib, fe'lli birikma hosil qiladi va bunda u to'ldiruvchi (*Genetiv-objekt*) vazifasini bajaradi.

Intransitives Verb + Substantiv im Genetiv. O'timsiz fe'l + qaratqich kelishikdagi ot. Misollar:

*Eines Wörterbuches bedürfen sich des elternlosen Kindes annehmen* Bu to'ldiruvchi Genetiv Objekt deb ataladi. U hozirgi nemis tilida kam qo'llanadi.





O'zbek tilidagi otning jo'nalish kelishikdagi formasi + fe'l Dativ kelishikdagi ot sxemasida tuzilgan birikmalar to'g'ri keladi. Masalan: *Einen Bekannten begegnen*.

Jo'nalish kelishigining asosiy funksiyasi gapdagi vositali to'ldiruvchini ifoda etishdan iborat. Jo'nalish kelishigi quyidagi ma'nolarni anglatadi:

Nemis tilida ma'lum bir fe'llar borki, ulardan keyin qo'llanadigan ot jo'nalish kelishigida ishlatilishi zarur va bu ot gapda to'ldiruvchi (Dativobjekt) ni ifoda etadi. Bunday fe'llarga quyidagilar kiradi: *begegnen, bestimmen, danken, dienen, drohen, erwidern, folgen, gefallen, helfen, winken* va boshqalar. O'zbek tilida ham otning jo'nalish kelishigida qo'llanishini talab qiladigan fe'llar bor: *ketmoq, bormoq, yubormoq, (qayerga?) Moskvaga, Berlinga, shaharga, uyga*.

Jo'nalish kelishigidagi ot (*Dativobjekt*) tushum kelishigidagi to'ldiruvchi (*Akkusativobjekt*) bilan ham birga ishlatiladi. Masalan: *Die Mutter gibt der Tochter eine Handuhr. Ona qiziga qo'l soat beryapti*. Bu holat odatda gapda uchraydi. Bunda ko'pincha jo'nalish kelishigi to'ldiruvchisi shaxsni, tushum kelishigi to'ldiruvchisi esa predmet ma'nosini ifoda etadi. Xabar-darak ma'nosini anglatadigan *befehlen, erwidern, melden, mitteilen, raten* kabi fe'llardan keyin *Akkusativobjekt – Dativobjekt* formasi qo'llanadi.

*Abnehmen, anbieten, bieten, bringen, geben* kabi fe'llardan keyin *Dativobjekt* va *Akkusativobjekt* formasi ishlatiladi. Masalan: *Er bat mir seine Hilfe an*.

Ma'no jihatdan to'ldiruvchi talab qilmaydigan fe'llar uchun jo'nalish kelishigida kelgan so'z to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Masalan: *Das steht dir gut*.

*Die Zeit vergeht mir schnell. Bu holat o'zbek tilida yo'q.*

Nemis tilida quyidagi predloqlardan keyin ishlatiladigan otlar jo'nalish kelishigida qo'llanadi: *mit, nach, aus, zu, bei, seit, von, außer, entgegen, gegenüber*. O'zbek tilida jo'nalish kelishigi asosan *-ga* affiksi bilan ifodalanib, *kimga?* yoki *nimaga?* So'roqlariga javob bo'ladi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Masalan:

*Bodom qovoq, yupqa tomoq, dodimga yetsangchi!*

Bu kelishikdagi so'zlar gapda o'rin va ravish holi vazifasida keladi. O'zbek tilida predloqlar umuman ishlatilmaydi, ularning o'rniga ko'makchilar qo'llanadi. O'rin-payt kelishigidagi ot bilan fe'ldan tuzilgan so'z birikmalari otlarning ma'nolariga qarab, o'rin, payt va boshqa obyekt ma'nolarini ifodalaydi. Bunday birikmalarning ma'nosi nemis tilining jo'nalish (*Dativ*) kelishigida ikki kelishikni (jo'nalish va tushum) boshqaradigan predloqlar yordami bilan ifodalanadi.

Masalan:

*Stolda (stol ustida) – auf dem Tisch Shaharda ishlaydi – in der Stadt arbeitet Kuzda boshlanadi – im Herbst beginnt kabi.*





Chiqish kelishigidagi ot bilan fe'ldan tuzilgan birikmalar obyektini harakat boshlangan o'rin va payt ma'nolarini ifodalaydi. Bunday ma'nolar nemis tilida faqat jo'nalish (**Dativ**) kelishigida ishlatiladigan predloglar yordami bilan ifoda etiladi. Masalan:

*Birinci apreldan boshlab ishlaydi – arbeitet ab ersten April, Temirdan qilingan – aus dem Eisen hergestellt.*

Lekin faqat jo'nalish kelishigida ishlatiladigan maxsus predloglarning har birining qo'llanishi o'zbek tilining chiqish kelishigiga mos kelavermaydi. Masalan: *nach, aus, von, entgegen* kabi predloglarning ishlatilishidagi ma'nolari chiqish kelishigiga mos keladi:

*Nach der Stunde Fahren – darsdan keyin bormoq (lekin nach Moskau fahren); aus dem Eisen hergestellt – temirdan qilingan.*

Ammo nemis tilining jo'nalish kelishigida qo'llanadigan ba'zi predloglarning ma'nolari chiqish kelishigi ma'nosiga mos kelmaydi. Masalan: *mit va zu* kabi jo'nalish kelishigi bilan qo'llanadigan predloglar ma'nolarini taqqoslab ko'raylik: *Mit dem Vater spreche – otam bilan gaplashyapman*; ba'zan *mit* predlogi chiqish kelishigi ma'nosiga to'g'ri kelishi ham mumkin: *Er ist zufrieden mit seiner Gesundheit – U o'zining sog'lig'idan xursand. Zu seinem Freund – o'z do'stiga.*

*Xulosa.* Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, nemis tilida ham, o'zbek tilida ham hokim so'z fe'l bo'lgan birikmalarda ravish (ba'zan sifatlar), vositali kelishikdagi ot yoki harakat nomi va sifatdoshlar tobe bo'lib keladi. Bunday birikma komponentlari gapda to'ldiruvchi va ravish funksiyasini bajarib, bir-biri bilan so'z tartiba yoki intonatsiya vositasida birikadi.

Nemis tilidagi fe'lli so'z birikmalarida tobe so'zlar hokim so'zdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin, o'zbek tilida esa ular hokim so'zdan albatta oldin keladi. Nemis tilida fe'l hokim so'z bo'lgan birikmalarda otlar fe'llarga predlogsiz yoki predlogli vositali kelishik formasida biriksa, O'zbek tilida esa vositali kelishiklarda yoki ko'makchi vositasida birikadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. Leningrad, 1962. S-175.
2. Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. Leipzig, 1966. S-91.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov H. O'zbek tili grammatikasi. II. tom, Sintaksis, Toshkent, 1976. 95-b.
4. Schendels E. Deutsche Grammatik. Moskau, 1982. S – 121.
5. Беньяминов JR Vergleichende Typologie der Deutschen und Usbekischen Sprache. Ташкент - «Учитель» - 1982 г. Мирсагатов Т.С. Немецкая грамматика. Синтаксис (Vergleichend с dem Usbekischen). Ташкент - «Учитель» - 1980 г.





### REFERENCES:

1 Duden. Grammar of contemporary German. Leningrad, 1962. S-175.

2 Jung W. Grammar of the German language. Leipzig, 1966. S-91.

3 Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov H.

4. O'zbek tili grammatikasi. II. Tom, Sintaksis, Toshkent, 1976. 95-

5 Schendel's E. German Grammar. Moscow, 1982. S - 121.

Бенъяминов JR Comparative typology of the German and Uzbek languages.  
Tashkent - "O'qituvchi" - 1982

6 Mirsagatov T.S. German grammar. Syntax (Vergleichend with dem Usbekischen).  
Tashkent - " O'qituvchi " - 1980

